©Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti 25-aprel,2026

SIYOSIY TAHLILCHILAR TAYYORLASHDA XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASI

Abdinabiyev Sanjarbek Shuxratovich
Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti
Xalqaro munosabatlar va zamonaviy siyosiy
jarayonlar yo‘nalishi magistranti
Mamadjonov Adhamjon Baxtiyorjon o‘g‘li
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti huzuridagi
Sharq mamlakatlarining rivojlanishini tadqiq etish ilmiy-tahliliy markazi direktori
Siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: Mazkur ilmiy maqolada siyosiy tahlilchilarni tayyorlash tizimlarining nazariy va amaliy asoslari chuqur tahlil qilinadi. Hozirgi globallashuv sharoitida siyosiy qarorlar qabul qilish jarayonining murakkablashuvi, davlat boshqaruvi sohasida ilmiy asoslangan tahlillarga bo‘lgan ehtiyojning keskin ortishi siyosiy ekspertlar faoliyatining ahamiyatini yanada kuchaytirmoqda. Shu nuqtai nazardan, ushbu maqolada siyosiy tahlilchilarning kasbiy kompetensiyalari, shuningdek, ularni shakllantirish omillari hamda ta’lim tizimidagi o‘rnini yoritib berish maqsad qilingan.

Ushbu tadqiqot davomida AQSh, Rossiya, Buyuk Britaniya va Xitoy kabi rivojlangan davlatlarda siyosiy tahlilchilarni tayyorlash tajribasi qiyosiy tahlil asosida o‘rganiladi. Shuningdek, Siyosatshunoslik sohasida “interdiscipliner” yondashuvning o‘rni ochib berilib, iqtisodiyot, sotsiologiya, statistika va ommaviy axborot vositalarining integratsiyasi muhim omil sifatida baholanadi hamda samarali modellar, ularning afzallik va kamchiliklari tahlil qilinadi.

Qolaversa, siyosatshunoslik yo‘nalishida ilmiy izlanish olib borayotgan tadqiqotchilar, oliy ta’lim muassasalari o‘qituvchilari va davlat boshqaruvi tizimi mutaxassislari uchun nazariy hamda amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: Tahlilchilar, globallashuv, ekspertlar, sotsiologiya, integratsiya, siyosatshunoslik.

KIRISh Bugungi kunda globallashuv va axborotlashuv jarayonlari jadallashib borishi ortidan siyosiy qarorlar qabul qilish tizimi tobora murakkablashib bormoqda. Ushbu vaziyatlarda siyosiy jarayonlarni chuqur o‘rganish, ularni bashorat qilish va ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish zarurati ortib bormoqda. Bu ehtiyoj esa yuqori malakali siyosiy tahlilchilarni tayyorlash tizimlarini takomillashtirishni taqozo etmoqda. Shu sababdan, siyosatshunoslik sohasida zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega mutaxassislarni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi kunda rivojlangan mamlakatlarda siyosiy ekspertlarni tayyorlash tizimi ancha takomillashgan bo‘lib, u ta’lim, ilmiy tadqiqot va amaliyotning uzviy integratsiyasiga asoslangan. Shuningdek, AQSh, Rossiya, Buyuk Britaniya va Xitoy kabi davlatlarda siyosiy tahlilchilarni tayyorlashda ilg‘or pedagogik yondashuvlar, zamonaviy analitik metodlar hamda aql markazlari institutlari faoliyati muhim o‘rin egallamoqda. Ushbu tajribalarni o‘rganish hamda ularni milliy ta’lim tizimiga moslashtirish esa bugungi davrda dolzarb ilmiy-amaliy vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Ushbu maqolaning maqsadi xorijiy davlatlarda siyosiy tahlilchilarni tayyorlash tajribasini qiyosiy tahlil qilish hamda ularning samarali jihatlarini aniqlashdan iborat. Izlanish jarayonida siyosiy tahlilchilarni tayyorlashning nazariy asoslari, kasbiy kompetensiyalari, ta’lim dasturlarining o‘ziga xos xususiyatlari hamda amaliy mexanizmlari o‘rganib chiqiladi. Shuningdek, xorijiy tajriba asosida milliy tizimni takomillashtirish bo‘yicha tegishli xulosalar va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Bu esa siyosiy tahlilchilar tayyorlash tizimini rivojlantirish, ta’lim sifati va samaradorligini oshirish hamda davlat boshqaruvi uchun malakali kadrlar zaxirasini shakllantirishga samarali asos bo‘lib xizmat qiladi.

ASOSIY QISM Tahlil markazlari davlat siyosatini o‘rganishga ixtisoslashgan institutlar bo‘lib, ular tadqiqotlar olib boradi, mustaqil tahlillar qiladi va ichki hamda xalqaro masalalar bo‘yicha tavsiyalar beradi. Bu tashkilotlar akademik doira va davlat organlaridan ekspertlarni jalb etadi. Ular turli ilmiy materiallar, ishchi hujjatlar, konferensiya materiallari, kitoblar, jurnallar va tahliliy sharhlar chop etadi. Bugungi kunda dunyo bo‘ylab 6500 dan ortiq shunday tashkilot faoliyat yuritmoqda[1].

Siyosiy tahlilchilarni tayyorlash tizimi har bir davlatning siyosiy institutsional tuzilmasi, davlat boshqaruvi modeli va ta’lim tizimi ishlab chiqish bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, u jamiyatda qaror qabul qilish jarayonining sifatini belgilovchi muhim omillardan biri bo‘lib xizmat qiladi. Zamonaviy siyosiy tizimlarda tahlilchilar nafaqat akademik ekspertlar, balki davlat siyosatini shakllantiruvchi va legitimlashtiruvchi strategik aktorlarga aylangan. Thomas Medvetz va Donald E. Abelson kabi olimlarning ta’kidlashicha, siyosiy tahlilchilarni tayyorlash jarayoni universitetlar, tahlil markazlari, davlat apparati, media hamda murakkab bilim va siyosat o‘rtasidagi bog‘liqlik orqali shakllanadi.

Amerika Qo‘shma Shtatlarida siyosiy tahlilchilarni tayyorlash tizimi o‘zining kompleksligi, institutlararo integratsiyasi va amaliy yo‘naltirilganligi bilan ajralib turadi. Ushbu tizim nafaqat akademik bilim berishga, balki real siyosiy jarayonlarda faol ishtirok eta olovchi, qarorlar qabul qilish jarayoniga ta’sir ko‘rsata oladigan mutaxassislarni shakllantirishga qaratilgan. AQSh tajribasida siyosiy tahlilchilarni tayyorlashning markazida universitetlar, tahlil markazlari (think tanklar), davlat institutlari va ommaviy axborot vositalari o‘rtasidagi uzviy hamkorlik turadi. Ayniqsa, Pennsylvania universiteti huzuridagi tashkil etilgan “The Global Go To Think Tank Index” reytingi ushbu tizimning global miqyosdagi ta’sirini ko‘rsatib beradi.

AQShda siyosiy tahlilchilarni tayyorlashda avvalo yetakchi universitetlarning ahamiyati juda yuqori. “Harvard”, “Georgetown”, “Princeton” kabi oliy ta’lim muassasalari siyosatshunoslik, xalqaro munosabatlar va davlat boshqaruvi yo‘nalishlarida chuqur nazariy bilimlar beradi. Ushbu universitetlarda tahsil olayotgan talabalar nafaqat nazariy bilimlarni o‘zlashtirishlari, balki amaliy loyihalar, simulyatsiyalar, siyosiy debatlar va tadqiqot ishlari orqali real muammolarni tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishlari lozim bo‘ladi. Shu bilan birga, talabalar ko‘pincha o‘qish davomida davlat boshqaruv organlari yoki siyosiy tahlil markazlarda faoliyat o‘tash imkoniyatiga ham ega bo‘ladilar.

Tahlil markazlar AQShda siyosiy tahlilchilarni shakllantirishning eng muhim bo‘g‘inlaridan biri hisoblanadi. “Brookings Institution”, “RAND Corporation”, “Council on Foreign Relations”, “Center for Strategic and International Studies” kabi tahlil markazlar

[1] University of Pennsylvania, Think Tanks and Civil Societies Program, 2020–2023.

ilmiy tadqiqot va amaliy siyosiy maslahatlarni umumiylashtirgan holda faoliyat yuritadilar. Ushbu tashkilotlarning o‘ziga xos va ajralib turadigan jihati shundaki, ular “think-and-do tank” modeli asosida ishlaydilar, ya’ni faqat nazariy tahlil bilan cheklanib qolmay, balki siyosiy qarorlar ishlab chiqishda to‘g‘ridan to‘g‘ri ishtirok etadi[2]. Ushbu markazlarda yosh mutaxassislar tajribali ekspertlar bilan birgalikda faoliyat olib borishi orqali real siyosiy muammolarni tahlil qilish, siyosiy hujjatlar tayyorlash va strategiyalar ishlab chiqish tajribasini ham orttiradilar.

Shuningdek, AQShda siyosiy tahlilchilarni tayyorlashda moliyalashtirish va grant tizimi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ko‘plab tahlil markazlar davlat, xususiy sektor va xalqaro tashkilotlar tomonidan moliyalashtiriladi[3]. Bu esa ularga keng ko‘lamli tadqiqotlar olib borish va yuqori malakali mutaxassislarni jalb qilish imkonini oshirishda yordam beradi. Biroq, moliyalashtirish manbalari masalasi ba’zan mustaqillik va xolislik masalalarini ham kun tartibiga olib chiqadi, shu sababli AQShda shaffoflik va hisobdorlik tamoyillariga alohida e’tibor qaratiladi.

Ommaviy axborot vositalari ham siyosiy tahlilchilarni tayyorlash va ularning faoliyatini ommalashtirishda muhim platformalardan biri hisoblanadi. “CNN”, “Fox News” va “NPR” kabi yirik ommaviy axborot vositalari tahlil markazi ekspertlarini muntazam ravishda suhbatlarga taklif qiladilar. Bu esa tahlilchilarga nafaqat ilmiy, balki kommunikativ ko‘nikmalarini rivojlantirib, ularning jamoatchilik fikriga ta’sir ko‘rsata olish qobiliyatini ham oshirishda yordam beradi.

Rossiya Federatsiyasida siyosiy tahlilchilarni tayyorlash tizimi davlat tomonida markazlashtirilgan model asosida shakllangan bo‘lib, u siyosiy ekspertiza, akademik tadqiqotlar va strategik xavfsizlik institutlari o‘rtasidagi yaqin integratsiya bilan tavsiflanadi[4]. Ushbu tizimda siyosiy tahlilchilar nafaqat ilmiy tadqiqotchilar sifatida, balki davlat tashqi va ichki siyosati hamda milliy xavfsizlik strategiyasini ishlab chiqishda bevosita ishtirok etuvchi ekspertlar sifatida faoliyat yuritadilar.

Rossiyada siyosiy tahlilchilar tayyorlashning asosiy institutsional bazasi asosan universitetlar hamda boshqa davlatga yaqin ilmiy-tadqiqot markazlaridan tashkil topgan. Jumladan, “Russian Academy of Sciences” tahlil markazi mamlakatdagi eng yirik fundamental tadqiqot markaz bo‘lib, u siyosatshunoslik, xalqaro munosabatlar va iqtisodiy strategiya yo‘nalishlarida ilmiy kadrlar tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, “MGIMO” universiteti (Moskva Davlat Xalqaro Munosabatlar Instituti) Rossiya diplomatik va siyosiy elitasi uchun kadrlar tayyorlovchi asosiy markaz hisoblanadi.

Qolaversa, Rossiya siyosiy tahlilchilar tayyorlash tizimining yana bir muhim tarkibiy qismi sifatida davlat tashkilotlariga yaqin “Russian International Affairs Council”, “Valdai Discussion Club” va “Institute of World Economy and International Relations” kabi tahlil markazlari ham faoliyat yuritadi.

Rossiya tizimining asosiy xususiyatlaridan yana biri “davlat-ekspert-siyosat” uchburchagining juda yaqin integratsiyasidir. Britaniyalik siyosiy tahlilchi Mark Galeotti Rossiya tizimini tahlil qilib, unda mustaqil think tanklar AQShdagidek erkin va mustaqil shaklda emas, balki davlat siyosati bilan muvofiqlashtirilgan ekspert tizimi sifatida faoliyat

[2] Abelson, D. E. (2018). *Do Think Tanks Matter? Third Edition: Assessing the Impact of Public Policy Institutes*. McGill-Queen’s University Press.
[3] Freeman, B. (2016). *The Foreign Policy Auction*. Washington, DC: Center for International Policy.
[4] Hill, F., & Gaddy, C. G. (2015). *Mr. Putin: Operative in the Kremlin*. Brookings Institution Press.

yuritishini ta’kidlaydi[5]. Bu holat siyosiy tahlilchilarning tayyorlanish jarayonini ham bevosita davlat ehtiyojlariga bog‘lab qo‘yadi.

Rossiya tizimida “revolving door” fenomeni ham mavjud, biroq u AQShdagidek ochiq emas. Davlat organlari, ilmiy institutlar va tahlil markazlari o‘rtasida ekspertlar almashinuvi asosan davlat nazorati ostida amalga oshiriladi.

Moliyalashtirish jihatidan esa Rossiya tizimi ko‘proq davlat byudjeti va davlatga yaqin grantlar orqali ta’minlanadi. Bu esa ilmiy tadqiqotlarning yo‘nalishini milliy xavfsizlik va tashqi siyosat ustuvorliklariga moslashtiradi.

Umuman olganda, Rossiya Federatsiyasida siyosiy ekspertlar tayyorlash tizimi markazlashgan, hamda strategik yo‘naltirilgan bo‘lib, institutsional jihatdan integratsiyalashgan model sifatida shakllangan. Bu modelda ilmiy ko‘nikmalar mustaqil emas, balki davlat siyosati bilan uyg‘unlashtirilgan strategik resurs sifatida qaraladi.

Shuningdek, Buyuk Britaniya va Xitoyda siyosiy tahlilchilarni tayyorlash tizimi zamonaviy global siyosiy bilimga tayangan tizimining ikki qarama-qarshi modelini ifodalaydi. Bu ikki mamlakat tajribasi bir tomondan liberal-pluralistik ekspertiza tizimi, ikkinchi tomondan esa partiyaviy-davlatga integratsiyalashgan epistemik model sifatida tahlil qilinadi.

Buyuk Britaniyada siyosiy tahlilchilarni tayyorlash tizimi ochiq akademik muhit, mustaqil tahlil markazlar va davlat siyosati o‘rtasidagi muvozanatli hamkorlikka asoslangan[6]. “Oxford” va “Cambridge” kabi universitetlar siyosatshunoslik va xalqaro munosabatlar bo‘yicha nafaqat mamlakat ichida, balki, dunyo bo‘ylab yuqori darajadagi ilmiy kadrlar tayyorlash bo‘yicha yetakchi o‘rinlarda turadi. Ushbu oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayoni nafaqat nazariy bilimga, balki amaliy tadqiqot metodlariga asoslangan[7].

Buyuk Britaniya tizimida siyosiy tahlilchilarni shakllantirishda mustaqil ilmiy markazlar, ya’ni aql markazlari juda muhim rol o‘ynaydi. Britaniya modelining muhim xususiyatlaridan biri “ekspertlar aylanishi” (policy circulation) hisoblanadi, ya’ni mutaxassislar universitet, tahlil markazlari, davlat idoralari va media o‘rtasida doimiy harakatda bo‘ladi. “BBC” va “Financial Times” kabi media tashlkilotlari esa siyosiy tahlilchilarning jamoatchilik bilan aloqasini kuchaytirib, ularning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishda ishtirok etadi.

Buyuk Britaniyada siyosiy tahlil markazlari asosan aralash moliyalashtirish tizimi asosida faoliyat yuritadi. Bu tizimda asosiy moliyaviy manbalar xususiy sektor, xayriya fondlari, davlat grantlari va xalqaro tashkilotlar hisoblanadi. Yirik kompaniyalar va banklar esa tahlil markazlariga grantlar ajratish orqali siyosiy va iqtisodiy tadqiqotlarni qo‘llab-quvvatlaydi.

Xitoy Xalq Respublikasida esa siyosiy tahlilchilarni tayyorlash tizimi butunlay boshqacha modelga ega bo‘lib, u davlat nazorati ostidagi markazlashgan epistemik tizim sifatida shakllangan[8].

Xitoyda siyosiy tahlilchilarni tayyorlashning asosiy institutsional bazasi “Chinese Academy of Social Sciences” (CASS), “Tsinghua University” va “Peking University” kabi markazlardan iboratdir. Mazkur institutlar davlat siyosati uchun muhim bo‘lgan strategik

[5] Galeotti, M. (2019). *We need to talk about Putin: How the West gets him wrong*. Ebury Press.
[6] Stone, D. (2007). *Think tanks, policy advice and governance*. Manchester University Press.
[7] O‘sha manba
[8] Naughton, B. (2018). *The Chinese economy: Adaptation and growth* (2nd ed.). MIT Press.

tahlillarni ishlab chiqadi hamda siyosiy elitani tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Barry Naughton Xitoy modelini davlat institutlari bilan markazlashgan deb izohlab[9], unda ekspertlar siyosiy qarorlar uchun maslahat beradi, biroq yakuniy qaror Kommunistik partiya tomonidan qabul qilinishini ta’kidlaydi[10].

Xitoyda tahlil markazlari uch asosiy toifaga bo‘linadi: davlatga qarashli markazlar, universitetlarga bog‘langan ilmiy markazlar hamda yarim mustaqil tadqiqot institutlari.

Xitoy media tizimi ham siyosiy tahlilchilarni tayyorlash va ularning fikrlarini tarqatishda muhim rol o‘ynaydi. Xinhua News Agency va China Global Television Network davlat siyosatini ekspert tahlillar orqali keng jamoatchilikka yetkazadi va rasmiy narrativni mustahkamlaydi.

Xitoyda siyosiy tahlil markazlarini moliyalashtirish butunlay boshqacha tizimga asoslangan bo‘lib, asosiy moliyaviy manba davlat byudjeti hisoblanadi hamda tahlil markazlarining katta qismi bevosita hukumat yoki Kommunistik partiya tomonidan moliyalashtiriladi. Xitoy Fanlar akademiyasi tizimidagi institutlar hamda yirik universitetlarning siyosiy tadqiqot markazlari esa davlat grantlari asosida faoliyat yuritadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda siyosiy tahlilchilarni tayyorlash tizimlari bo‘yicha olib borilgan qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, rivojlangan davlatlarda ekspert bilimlari siyosiy qaror qabul qilish jarayonining ajralmas bir qismiga aylangan. AQSh, Rossiya, Buyuk Britaniya va Xitoy tajribasi ushbu sohaning turli institutsional modellarda rivojlanishini ko‘rsatadi. Har bir model davlatning siyosiy tizimi, ideologik yondashuvi hamda boshqaruv mexanizmlariga mos ravishda shakllangan.

AQSh modeli ko‘p markazli, raqobatbardosh va institutlararo integratsiyaga asoslangan tizim bo‘lib, unda universitetlar, mustaqil tahlil markazlari, davlat organlari va media o‘rtasidagi kuchli o‘zaro bog‘liqlik mavjud. Ushbu tizimning asosiy ustunligi shundaki, u siyosiy ekspertlarga yuqori darajadagi amaliy tajriba, akademik erkinlik va turli manbalardan ma’lumotlar olish imkonini beradi. Shuningdek, aql markazlari hamda universitetlar o‘rtasidagi yaqin hamkorlik innovatsion siyosiy g‘oyalar ishlab chiqilishini tezlashtiradi. Biroq ushbu tizimning kamchiligi sifatida moliyalashtirish manbalarining ko‘pligi tufayli yuzaga keladigan manfaatlar to‘qnashuvi hamda yirik donorlar va davlat buyurtmalarining tahlil mustaqilligiga ta’sir ko‘rsatishi xavfi qayd etiladi.

Rossiya modeli markazlashgan va davlatga yaqinlashgan tizim sifatida tavsiflanib, unda siyosiy tahlilchilar asosan davlat strategik ehtiyojlari doirasida shakllanadi. Ushbu modelning ustunligi siyosiy barqarorlik, strategik yo‘naltirilganlik va davlat siyosati bilan siyosiy tahlil o‘rtasidagi yuqori darajadagi muvofiqlikdadir. Biroq kamchiligi sifatida akademik mustaqillikning cheklanganligi, fikrlar xilma-xilligining nisbatan pastligi hamda mustaqil tahlil markazlarining rivojlanish imkoniyatlari cheklanganligini aytish mumkin. Bu holat innovatsion va tanqidiy tahlil salohiyatini qisqartirishi mumkin.

Buyuk Britaniya tizimi liberal-pluralistik yondashuvga asoslangan bo‘lib, unda universitetlar, mustaqil aql markazlari va davlat boshqaruv organlari o‘rtasida muvozanatli hamkorlik mavjud. Ushbu modelning asosiy ustunligi akademik erkinlikning yuqoriligi, ekspertlarning mustaqil fikr bildirish imkoniyati hamda siyosiy tahlil jarayonida ochiqlik va

[9] O‘sha manba

[10] Shambaugh, D. (2008). *China’s Communist Party: Atrophy and adaptation*. University of California Press.

shaffoflikning ta’minlanishidir. Kamchiligi sifatida shuni aytish mumkinki, ayrim hollarda tizimning ortiqcha fragmentatsiyalashuvi, ya’ni turli tahlil markazlari o‘rtasida koordinatsiyaning yetarli emasligi va siyosiy ta’sir kuchining nisbatan bilvosita bo‘lishidir.

Xitoy modeli esa markazlashgan va davlatga integratsiyalashgan epistemik tizim sifatida shakllangan bo‘lib, unda ekspertlar siyosiy qarorlar uchun ilmiy asos yaratadi, biroq yakuniy qarorlar Kommunistik partiya tomonidan qabul qilinadi. Ushbu tizimning ustun jihati davlat siyosatining yuqori darajadagi markazlashuvi, strategik rejalashtirishning samaradorligi va ilmiy tahlilning davlat ehtiyojlariga to‘liq moslashganligidir. Ammo, kamchiligi sifatida erkinlikning cheklanganligi, mustaqil tahlil institutlarining zaifligi hamda alternativ fikrlar mavjudligining cheklanishini qayd etish mumkin.

Umuman olganda, barcha tizmlarda siyosiy ekspertlar davlat siyosatini shakllantirish jarayonida muhim vosita vazifasini bajaradilar. Shunday ekan, milliy tizimni takomillashtirish nuqtai nazaridan, birinchi navbatda, ta’lim jarayonini amaliy siyosat bilan chuqur integratsiya qilish lozim. Universitetlarda nazariy bilimlar bilan bir qatorda real voqelikka asoslangan siyosiy jarayonlarni tahlil qilishga yo‘naltirilgan amaliy tadqiqotlar, simulyatsiya va amaliyot tizimlarini kengaytirish lozim. Ikkinchidan, mustaqil tahlil markazlarini rivojlantirish hamda ularning institutsional mustaqilligini ta’minlashga e’tibor qaratish muhimdir. Bu esa o‘z navbatida ilmiy xolislik va tahlil sifati oshirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, moliyalashtirish tizimini diversifikatsiya qilish orqali esa bir manbaga bog‘liqlikni kamaytirib, ilmiy mustaqillikni mustahkamlashga erishish mumkin. Bundan tashqari, tahlil markazlarida shaffoflikni oshirish, tadqiqot metodologiyalari hamda moliyaviy manbalarni ochiq e’lon qilish ham tizim ishonchliligini oshirishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. University of Pennsylvania, Think Tanks and Civil Societies Program, 2020–2023.
2. Abelson, D. E. (2018). Do Think Tanks Matter? Third Edition: Assessing the Impact of Public Policy Institutes. McGill-Queen’s University Press.
3. Freeman, B. (2016). The Foreign Policy Auction. Washington, DC: Center for International Policy.
4. Hill, F., & Gaddy, C. G. (2015). Mr. Putin: Operative in the Kremlin. Brookings Institution Press.
5. Galeotti, M. (2019). We need to talk about Putin: How the West gets him wrong. Ebury Press.
6. Stone, D. (2007). Think tanks, policy advice and governance. Manchester University Press.
7. Naughton, B. (2018). The Chinese economy: Adaptation and growth (2nd ed.). MIT Press.
8. Shambaugh, D. (2008). China’s Communist Party: Atrophy and adaptation. University of California Press.